

IRODAVIY SIFATLARNI SHAKLLANTIRISHDA OILAVIY QADRIYATLARNING TUTGAN O'RNINI

Jo'rayev O'tkir Tashpulatovich-Termiz davlat universiteti, Psixologiya kafedrasida katta o'qituvchisi

Annotatsiya: Oila - bu shaxslararo munosabat tizimining kichik bo'g'inidir. Unda o'zaro muomalaning barcha qoidalariga amal qilishi zarur. Ma'naviy barkamol, irodasi mustahkam insonlar aynan oilada kamol topadi. Oila xalqning, jamiyatning hayoti, turmushga oid urfodat va an'analarini o'zida mujassam etishi va asrab avaylab kelajak avlodlarga yetkazishi uning muhim vazifalardan biridir. Ushbu maqolada irodaviy sifatlarni shakllantirishda oilaviy munosabatlarning o'rnini haqida fikr yuritiladi.

Kalit so'zlar: iroda, botirlik, chidamlilik, sabrlilik, oila, barkamol shaxs, oila mustahkamligi.

Аннотация: Семья – маленькое звено системы межличностных отношений. Необходимо соблюдать все правила взаимодействия. Духовно совершенные, волевые люди находят совершенство в семье. Одной из важнейших задач семьи является воплощение жизни народа, общества, обычаев и традиций, связанных с браком, сохранение их и передача будущим поколениям. В данной статье рассматривается роль семейных отношений в формировании волевых качеств.

Ключевые слова: воля, храбрость, выносливость, терпение, семья, всесторонне развитый человек, семейная сила.

Abstract: Family is a small link in the system of interpersonal relationships. All rules of engagement must be followed. Spiritually perfect, strong-willed people find perfection in the family. One of the most important tasks of the family is to embody the life of the people, society, customs and traditions associated with marriage, preserving them and passing them on to future generations. This article examines the role of family relationships in the formation of volitional qualities.

Key words: will, bravery, endurance, patience, family, well-rounded person, family strength.

Inson borki tug'ilgan kundan boshlab oila muhitida yashaydi. Oilaga xos an'analar, qadriyatlar, urf-odatlar bolaning shaxsiy sifatlarini shakllantiradi, eng muhimi, farzandlar oilaviy hayot maktabi orqali jamiyat talablarini anglaydi, his etadi. [1]

Oila tarbiyasi – bu umuminsoniy jarayonning shunday bosqichidirki, keyinchalik shaxs butun umri davomida oladigan ma'rifat va hayot saboqlari uchun asos, zamin poydevor vazifasini o'taydi. [2]

Muhtaram Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyevning quyidagi fikrlari diqqatga sazovor, "Bugungi kunda yurtimizda tobora keng tarqalib borayotgan. "O'z

bolangni o`zing asra” degan da`vat faqat quruq shior bo`lib qolmasdan, har bir ota-ona, har bir fuqaroning qalbiga chuqur kirib borishi amaliy harakatga aylanishi zarur. Buning uchun ota-onalarning farzandlar kamoloti ularning jismonan baquvvat ruhan tetik, irodasi mustahkam, qiyin vaziyatlarda matonat bilan oldiga qo`ygan ezgu maqsadlari sari ildam qadam qo`yadigan yoshlarni tarbiyasi uchun mas`ulligini oshirish muhim.

Darhaqiqat oilaviy muhit tarbiyaning asosi sanaladi. Bola uyda nimani ko`rsa, shunga tahlid qilib o`sadi. Oilada ota olijanob keng fe`l, mas'ulyatli, tashabbuskor, qat'iyatlili, jasur, botir, mulohazali va ozgina siyosatliroq bo`lishi, ona esa mehribon, rahimdil, bardoshli, matonatli, sabrli, tirishqoq, sobidqadam va muloyim bo`lmog`i lozim.

Jahonda insondagi irodaviy faollikni rivojlantirish masalasi shaxs kamolotini ta'minlovchi omil sifatida e'tirof etilmoqda. Irodaning asosiy vazifasi hayotning qiyin ekstrimal sharoitlarida faoliyatni ongli ravishda tizimli tartibga solishdir. Shu jihatdan bugungi kunda yoshlarni irodali, mas'uliyatli, tirishqoq, dovyurak qilib tarbiyalashga e'tibor ortib bormoqda. [4]

Shu munosabat bilan yoshlarimizni oila muhitida ma`naviy barkamol, irodasi mustahkam shaxs qilib tarbiyalashda quyidagi masalalarga e'tibor qaratish foydadan xoli bo`lmaydi:

1. Oila ma`naviyatini yuksaltiruvchi tizimlar faoliyatini yanada takomillashtirish.

2. Yigit va qiz bolalar tarbiyasi uchun milliy qadriyatlar va an`analarimiz asosida yangi tartiblarni joriy etish.

3. Jismoniy madaniyat masalasini oilaviy qadriyatlar darajasiga olib chiqish orqali shaxsdagi irodaviy sifatlarni rivojlantirish.

Ma`naviy barkamol inson - muayyan jamiyatning a`zosi bo`lib, u psixologik jihatdan taraqqiy etgan, o`z xususiyatlari va xatti-harakatlari bilan boshqalardan ajralib turadi [5].

Har bir insonda irodani rivojlantirish va uni mustaqil ravishda tarbiyalash uchun barcha imkoniyatlar mavjud. Irodani ongli ravishda tarbiyalash jarayoni qanchalik tez boshlansa, shunchalik ko`p muvaffaqiyatlarga erishish mumkin.

Bu hayotda odam ba`zan o`zini yo`qotib qo`yadigan g`oyat murakkab muammolarga duch keladi. Keskin vaziyatdan chiqishning iloji yo`qdek tuyuladigan holatlar bor. Shunday paytda, ishda va hayotda, jamiyatda og`ir savdolarga duch kelganda kim o`zining yo`lini yo`qotmasligi mumkin? O`ylaymanki, birinchi navbatda o`z kuchiga ishongan, ruhiy dunyosi, ma`naviy olami baquvvat bo`lgan odamgina bunday vaziyatdan yorug` yuz bilan chiqa oladi. Ma`naviy boylik shunday paytda odamga katga kuch va madad beradi.

Shu ma`noda, insonning ma`naviyati yuksalishi bilan uning irodasi ham kuchayib boradi, desak, yanglishmagan bo`lamiz. Iroda - bu aslida mustahkam ishonch demakdir. Irodasi baquvvat odam o`ziga ishonadi va har qanday murakkab vazifani ham o`z zimmasiga olishdan qo`rqmaydi. Shuning uchun ham yuksak irodali insonga suyanish mumkin. Bunday kishilar boshingizga biror-bir tashvish

yoki muammo tushgudek bo'lsa, loqayd qarab turolmaydi. Hech ikkilanmasdan, yoningizda turib, qo'ldan kelgancha yordam berishga, qiyinchiliklarni siz bilan birgalikda yengishga harakat qiladi.

Irodani mustaqil tarbiyalash usullari juda ham har xil bo'lishi mumkin, lekin ularning hammasi quyidagi shartlarga amal qilishni o'z ichiga oladi.

1. Irodani tarbiyalashni nisbatan arziyasiz qiyinchiliklarni bartaraf etishni odat qilishdan boshlash kerak. Har bir qarshilikni "Bo'ysundirilmagan qal'a" sifatida baholash lozim va uni, bu "Qal'ani olish" uchun barcha imkoniyatni ishga solish kerak.

2. Qiyinchiliklarni va to'siqlarni bartaraf etish ma'lum maqsadlarga erishish uchun amalga oshiriladi. Maqsad qanchalik ahamiyatli bo'lsa, irodaviy motivlar darajasi qanchalik yuqori bo'lsa, kishi shunchalik katta qiyinchiliklarni bartaraf etishga qodirdir. Muhimi, kishi kundalik ishlari orasida uzoq kelajakni hech qachon unutmasligi, faoliyatning so'nggi maqsadlarini hech vaqt esdan chiqarmasligi kerak.

3. Qabul qilingan qaror bajarilishi kerak. Har gal, qachonki, qaror qabul qilinib, uning bajarilishi yana va yana kechiktirilaversa kishining irodasi izdan chiqadi, qabul qilingan qarorlarning muntazam ravishda bajarilmasligi kishi irodasini intizomsiz qilib qo'yadi.

Foydalanilgan adabiyotlar.

1. Karimov I.A. "Barkamol avlod - O'zbekiston taraqqiyotining poydevoridir". T., Sharq, 1997-y.

2. I.A. Karimov I.A. "Ozod va obod Vatan, erkin va faravon hayot - pirovard maqsadimiz". T., O'zbekiston. 2000. 8-tom.

3. Prezidentimiz Shavkat Mirziyoevning "Kamolot" yoshlar ijtimoiy harakatining IV qurultoyidagi nutqi.

4. Jo'rayev, O'. TALABALARDA IRODAVIY FAOLLIKNI NAMOYON BO'LISHINING GENDER TAFOVUTLARI. *Журнал Педагогика и психологии в современном образовании*, 3(3), 2023. 116-119.

5. Munavvarov A.K. Oila pedagogikasi. T., O'qituvchi. 1994.

6. Жураев, У. Т. (2020). Практический анализ функционирования ситуационных и личностных детерминант волевой деятельности. *Проблемы современной науки и образования*, (1 (146)), 108-110.

7. Жураев, У. Т. (2020). Психологические детерминанты формирования навыка личности. *Вестник науки и образования*, (7-2 (85)), 98-100.

8. Жураев, У. Т. (2018). Modern psychological character of terrorism. *Научные горизонты*, (3), 31-35.

9. Jo'rayev, O. (2023). TALABALARDA IRODAVIY FAOLLIKNI NAMOYON BO'LISHINING GENDER TAFOVUTLARI. *Журнал Педагогика и психологии в современном образовании*, 3(3), 116-119.

извлечено

от

<https://ppmedu.jdpu.uz/index.php/ppmedu/article/view/8727>